JIZZAX VILOYATI FORISH TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2024 - yil 13 - may 111-3-53-Q/24 Forish tuman hokimligi

Forish tumani ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida sun’iy yo‘l notekisliklar va yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6-, 25-moddalari (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-y., 9-son, 320-modda), “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 15-son, 197-modda), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-iyuldagi “Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3127-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 28-son, 645-modda), Vazirlar Mahkamasining 2022-yil
12-apreldagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati qoidalari” (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.04.2022-y.) ijrosini hamda tumanda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Forish tuman Ichki ishlar bo‘limining 2023-yil 4-iyuldagi 42/2774-sonli xati ma’lumot va asos uchun qabul qilinsin va ma’qullansin.

2. Forish tumani hududidagi **Nurak MFY** hududiga ilovaga muvofiq sun’iy yo‘l notekisligi va yo‘l belgilari o‘rnatilsin.

3. Tuman “Obodonlashtirish” boshqarmasi (X.Jo‘raqulov)ga tuman hududidagi Nurak MFY hududi Qoratosh-Qoraxon yo‘nalishidagi avtomobil yo‘liga ilovaga muvofiq sun’iy yo‘l notekisligi va yo‘l belgilarini o‘rnatish vazifasi

topshirilsin.

4. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan yo‘l belgilari hamda svetofor ishoralari, yo‘l chiziqlariga amal qilishlari, shuningdek berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shart.

5. Tuman IIB YHXB (V.Xusanov) mazkur yo‘l belgilari o‘rnatilishi hamda tuman hududida transport vositalari harakati tartibga solinishi nazorat qilib borilsin.

6. Ushbu qaror “Forish tongi” gazetasida chop etilsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari F.Amirov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **I.S.Matiyev**

Forish tuman hokimining
2024-yil 13-maydagi
111-3-53-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Nurak MFY ichki yo‘llariga o‘rnatiladigan sun’iy yo‘l notekisliklar joylashuvi dislokatsiyasi

	MFY nomi	Joylashtirish joyi PK	Soni	Yo‘l belgisi nomi
1	Nurak MFY	00+30	1	1.31. Sun’iy yo‘l notekisligi